



МУҒАЛЛИМ ХӘМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҮ

Илимий-методикалық журнал

№ 3/3 2023





МАЗМУН

ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

Абдуллаева Б. Р. Ana tili sabaqlarında texnikalıq hám kórgizbe qurallardan paydalanyw....	5
Зулпиеva Д.Э. Инглиз тилини B2 даражадаги талабаларга ўргатишда CEFR нинг самараси.....	8
Ashurova Sh.Sh. Xorijiy tillaridagi nutqni o'rgatishning zamonaviy texnologiyalari.....	10
Abdusamatov A.S. Semiotik ta'larning fan sifatida shakllanishi.....	14
Yuldasheva Sh.Sh. Raqamlashtirish davrida o'zbek tilini o'qitishning tashkiliy-pedagogik va didaktik shart-sharoitlari.....	18
Usmonxodjayeva M Boshlang'ich sinflarda xorijiy til o'qitish metodikasini takomillashtirish (nemis tili misolida)	23
Rahmanova D Olmon tili shevalarining o'rganilishi va tarixi.....	27
Рахманова Ю.К. Принципы создания учебной литературы по русскому языку в свете требований высшей школы.....	30
Turabayeva K.E. Role of games in teaching foreign languages to esp students.....	35
Tursunova F.D. The relation of intensity to adjacent disciplines.....	42
Mamadaliyeva M.T. literary discourse in english and uzbek languages and its linguoculturological studies.....	45
Abdulhamidov S.X. The main trends in the study of the category of causation in linguistics.....	48
Abdulhamidov S.X. Features of the functioning of causative verbs in the compared languages.....	51
Shoxobiddinov S.I. Pragmalinguistic features of language units expressing presupposition in English.....	54
Shoxobiddinov S.I. Studying the phenomenon of presupposition in different sciences.....	56
Mamadaliyeva M.T. Methodology of linguoculturological literary text analysis.....	59
Allayev Z.M. Enhancing the effectiveness of activities by modifying their original versions according to the needs of language learners.....	62

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Темирбекова А.О., Байниязова Г. Японияда билимлendiriyú системасы хэм өзгешеликleri.....	66
Ильясова З. Жаслар арасында китапқумарлық мәдениятын қәлиплестириүдин гейпара мәселелери.....	68
Abdiev B. Talabalardíń kommunikativ kompetenciyasín jetilistiriwde kreativ oylawdíń ózgeshelikleri.....	72
Ходжаниязов С.У. Шайх Нажмиддин Кубронинг педагогик қарапшларида комил инсон муаммоси масалалари.....	74
Pinyozov I.H. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarini iqtisodiy va tadbirkorlikka tarbiyalash masalalari.....	77
Abduraxmonova M.M. Yangilanayotgan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar zamirida oliy ta'larning o'rni va ahamiyati.....	80
Abduraxmonova S. Sh. Pedagogik amaliyat - talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashda kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish omili sifatida.....	83
Baybaeva M.X., Imomov I.A. Ta'limda rahbarlarning boshqaruvin faoliyatlarida sog'lom va ijodiy muhitni takomillashtirishning tashkiliy-me'yoriy asoslari.....	87
Umarov A.V. Oliy ta'lim muassasalarini talabalarining mediamadaniyatini rivojlantirish pedagogik zarurati.....	92

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

6.VMning 2017-yil 14-avgustdagи “Internet jahon axborot tarmog‘ida milliy kontentni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risi”da 625-son qarori. <https://lex.uz/docs/-3308837>

7.Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018. 257 b.

8.Khamdamov, Utkir, et al. "Conceptual Model of the Education Management Information System for Higher Education Institutions." International Journal 9.5 (2020).

9.Qosimova N. Zahiriddin Muhammad Bobur – yangi yozuv kashfiyotchisi. <http://www.trift.uz>

10.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – 549 б.

11.Carrier M., Damerow R. M., and Bailey K. M.. Digital language learning and teaching. Research, theory and practice. London, UK: Routledge, 2017. (in English)

12.Галкина О.В. Рол и место понятия «организационно-педагогические условия» в терминологическом аппарате педагогической науки: дис....канд. пед. наук. – Самара, 2009. 187 с .

13.Нельзя просто взять и оцифровать. <https://toipkro.ru>

14.Новости образования в 2019 году. <https://2019-god.com/novosti-obrazovaniya-v-2019-godu/>
Современные инновации в образовании. <https://businessman.ru/new-sovremennoye-innovacii-v-obrazovanii-primerы.html>

15.Титова С.В. Цифровые технологии в языковом обучении, Теория и практика. – М.: Эдитус, 2017. 248 с. [Электрон ресурс]. УРЛ: <https://obuchalka.org/2017070295214/cifrovie-tehnologii-v-yazikovom-obuchenii-teoriya-i-praktika-titova-s-v-2017.html> (дата обращение: 2020. 06.10).

16.Халин В.Г., Чернова Г.В. Цифровизация и ее влияние на российскую экономику и общество: преимущества, вызовы, угрозы и риски. //Управленческое консультирование. Москва: РАНХиГС, 2018; № 10 (118): с. 46 – 63.

17.Цифровые технологии в образовании. <https://2019god.net/novosti/cifrovye-tehnologii-v-obrazovanii-s-2019-goda>

РЕЗЮМЕ

Maqolada raqamlashtirish sharoitida OTMlarining qardosh tillardagi guruqlarida o‘zbek tilini o‘qitishda raqamli ta’lim muhitini yaratishning tashkiliy-pedagogik, didaktik shart-sharoitlari, lingvodidaktik tizimi yuzasidan tahlillar natijalari bayon qilingan.

РЕЗЮМЕ

В статье описаны результаты анализа организационно-педагогических, дидактических условий, лингводидактической системы создания цифровой образовательной среды в условиях цифровизации при обучении узбекскому языку в группах высших учебных заведений, где обучение ведется на родственных языках.

SUMMARY

The article describes the results of the analysis of organizational, pedagogical, and didactic conditions of linguo-didactic system of digital education environment creation in the context of digitalization in teaching uzbek language in groups of higher education institutions, where teaching is conducted in related languages.

Boshlang‘ich sinflarda xorijiy til o‘qitish metodikasini takomillashtirish (nemis tili misolida)

Usmonxodjayeva M.

Toshkent viloyati Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: lingvistik bilim, interfaol metod, darslik, nutqiy faoliyat, lingvodidaktik vosita, madaniyatlararo muloqot.

Ключевые слова: лингвистика, интерактивный метод, учебник, речевая компетенция, лингво-дидактический средство, межкультурная коммуникация.

Key words: linguistics, interactive method, textbook, speech competence, linguo-didactic tool, intercultural communication.

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan globallashuv davrida boshlang‘ich sinflarda ham chet tilini o‘qitishga nisbatan e’tibor kuchaydi. Ko‘ptillilikni o‘rganish o‘quvchi uchun ham foydadan xoli bo‘lmaydi. Rivojlanayotgan Yevropa integratsiyasi va iqtisodiy globallashuv yoshlardan lingvistik va madaniy xilma-xillik talablariga malakali munosabatda bo‘lishni va shaxsiy hayot, keyingi ta’lim va ish bilan bog‘liq holda harakatchanlikka moslashishni talab qiladi. Bu majburiy fanlardan biridir. Bolalar taqlid qilish va g‘alati narsalarni o‘z-o‘zidan va ikkilanmasdan kutib olish qobiliyatiga ega. Boshlang‘ich sinflarda chet tilini o‘qitishdan asosiy maqsad o‘quvchining madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish hisoblanadi. Barcha mamlakatlarda boshlang‘ich sinflarda chet tilini o‘rgatish ko‘p tillilikni egallash va chet tilini hayot davomida o‘rganish uchun asosdir. Boshlang‘ich sinflarda chet tilini o‘rgatish bolalarda maktabning boshidanoq bag‘rikenglik va o‘zaro tushunishni singdiradi, demak u madaniyatlararo faoliyat sohasida ham muhim vazifani bajaradi.

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi – chet tilida muloqot olib boruvchi shaxsning ma’lum bir til egalarining milliy-madaniy xususiyatlari, ularning urf-odatlari, muomala qoidalari, tarixi va madaniyatidan xabardor bo‘lishi hamda amaliyotda qo‘llay olishi, o‘zga madaniyat vakillari bilan muvaffaqiyatli ravishda muloqotga kirisha olish qobiliyatini namoyon qila olish layoqatidir. Shunday ekan, biz farzandlarimizga yoshlidan boshlab qaysidir bir tilni mukammal egallahshini bot-bot uqtirib kelamiz. Buning uchun o‘zimiz ham qaysidir ma’noda ularning chet tilini o‘z tili bilan birgalikda o‘zlashtirib borishi uchun sharoit yaratib beramiz. Ammo o‘quvchini chet tilini puxta o‘zlashtirishidagi eng katta vazifa o‘qituvchiga uning o‘rgatish metodikasiga bog‘liqligini yaxshi tushunishimiz kerak.

Tilshunos olimlar Sitaram va Kogdellar “butun dunyo xalqlari madaniyatlararo muloqotni o‘rganishlari kerak” deb e’lon qildilar. ularning fikricha, buning yordamida boshqa madaniyat vakillari haqida ko‘proq ma’lumot olish muhimligini ko‘rsatadi. Darhaqiqat, shunday ekan biz o‘quvchiga chet tilini o‘rgatish bilan birgalikda o‘sha mamlakatning madaniyatini ham sindirib boramiz.

O‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini chet tilini o‘qitish orqali rivojlantiruvchi mezonlar:

O‘quvchilar chet tilini o‘rganish jarayonida o‘sha mamlakat madaniyatini o‘zlashtiradi.

O‘z xalqi madaniyatini oz miqdorda bo‘lsa ham o‘zga til sohiblariga taqdim etishga harakat qiladi.

Chet tilini o‘rganish jarayonida o‘quvchilarda ijtimoiy dunyoqarash shakllanadi.

Ikkinci tilni o‘rganish ona tilidagi egallangan bilimga, tajribaga suyanishni taqozo etadi. O‘quvchilri chet tilida nutqiy ko‘nikmalarini egallahslari uchun o‘qituvchi tomonidan turli metodlar amalga oshiriladi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari matn va unga mos keladigan rasmlarga juda qiziqishadi. Audiovizual materiallar orqali o‘quvchilarning tinglab tushunish va gapirish ko‘nikmasi yaxshi rivojlanadi. So‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rganishadi. Uyda, asosan, yozma mashqlar, matnni ovoz chiqarib o‘qish mashqlari vazifa sifatida berilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki bola sinfga nisbatan uyda erkinroq bo‘lib, bemalol ovozini balandlatib so‘zlarni talaffuz qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bir soatlilik dars davomida o‘qituvchi o‘quvchilarning chet tilidagi so‘z boyliguni oshirish uchun “Alifbo” metodidan foydalansa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda sinfdagi barcha o‘quvchini jalb qilsa bo‘ladi. O‘qituvchi sinf taxtasiga alifbo harflarini ketma-ketlikda yozadi va o‘quvchilarni uch guruhgaga bo‘ladi. Ular harflar ketma-ketligi bo‘yicha chet tilidagi atamalarni takrorlamasdan birma-bir aytishadi. Ma’lum bir vaqt davomida chet tilidagi atamalarni ayt

olmagan o‘quvchi o‘yinni tark etadi. Shunday qilib, qaysi guruhdagi o‘quvchining g‘olibligi aniqlanadi va rag‘batlantiriladi. Rag‘batlantirish o‘quvchilarni yanada ko‘proq bilim olishga, fanga qiziqishiga sabab bo‘ladi.

Chet tili darslarida lug‘at bilan ishslash asosiy e’tibor markazida turishi kerak. O‘quvchilarga chet tilini o‘qitishda atamalar ma’nosini tushuntirish orqali gaplar tuzish, gaplardan matnlar hosil qilish ularning ijodiy motivatsiyasini mustahkamlaydi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni matnni o‘qib tushunish va mazmun-mohiyatini idrok qilishga tayyorlash jarayoni ularning intellektual salohiyati, qiziqishlarini hisobga olishni taqozo etadi.

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish ijtimoiy-madaniy moslashuvni ya’ni, yangi madaniyatga shaxsning integratsiyalashuvini taqozo etadi¹⁷. Shunday ekan, biror tilni o‘zlashtirish jarayonida shu tilda gaplashuvchi millatning tarixi, urf-odatlari, madaniyati, an’analarini yoritish orqali o‘rgatib borish o‘quvchilarda tilni o‘rganishga qiziqish uyg‘otsa, kelajakda turli xil muammoli vaziyatlarga tushib qolmasliklarini kafolatlaydi.


Dars davomida qo‘llaniladigan audiovizual materiallar yoki multimedialar dars samaradorligini oshiradi. Birinchi sinfda o‘qish, yozish amaliyotlari o‘rniga asosan barcha mashg‘ulotlar tinglab tushunish va tushungani asosida so‘zlash, og‘zaki nutqni o‘stirishga qaratilgan bo‘ladi. Bundan tashqari, boshlang‘ich sinf darsliklarida turli xildagi o‘yinlar orqali o‘quvchilarni qiziqtirib, chet tilidan boshlang‘ich saboq berish jarayonida ularning bilimlari mustahkamlanib boradi. Ammo shuni ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich sinf darsliklarida berilgan ma’lumotlar va rasmlar o‘quvchilarning yoshi, fiziologik xususiyatlariga mos bo‘lishi darkor. Hattoki, tasvirlardagi ranglar ham o‘quvchining diqqatini tortadi. Yorqin ranglar ham bolaning fanga, darsga qiziqishini uyg‘otishda yaxshi samara beradi. Shuning uchun ham bugungi kunda darslarda ko‘zlangan maqsadga erishyapmiz. Bundan tashqari, boshlang‘ich sinflarda dars jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish jarayonida ijro etilgan qo‘shiqlar qisqaroq aytilgan, ammo asosiy so‘zlarini naqoratga qo‘shib, ko‘proq takrorlansa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Multimediada so‘zlarni sekin, o‘rtacha tezlikda, tez aytishda turli jonivorlar qiyofasidan ham foydalansa, yanada qiziqarliroq bo‘ladi. Masalan, sekin talaffuz qilinadigan o‘rinda toshbaqa qiyofasi, tez aytildigan o‘rinda tez uchadigan qushlar qiyofasidan foydalanish ham mumkin. Bu suratlar, metodlarning barchasi o‘quvchilarning ma’noni anglashi uchun yanada oson va tushunarli kechadi. Negaki, o‘quvchilarga yuqoridaq jonivorlar tanish, ularning o‘ziga xos xususiyatidan xabardor, shunga muvofiq qo‘shiqdagi so‘zlarni sekin yoki tez talaffuz qilib, ma’no nozikligini anglab oladi. Natijada o‘quvchilarda tinglab tushunish ko‘nikmasi yaxshi rivojlanadi.

Dars jarayonida qiziqarli o‘yinlardan foydalanish ham o‘quvchilar faolligini oshirib borishda muhim omil hisoblanadi. Interaktiv metodlardan o‘rinli va unumli foydalanish, ularning mustaqilligini ta’minalash eng muhim jihatlardan biri sanaladi. Albatta, bu jarayonda pedagog va o‘quvchining faolligi yanada oshib boradi. Chet tili darslarining maqsadi o‘quvchilarning savodxonligini oshirish, nutqiy malakasini o‘stirish, shu bilan bir qatorda, ularni ijodiy fikrlashga yo‘naltirishdir. Amaldagi dasturlar va ular asosida yaratilgan darsliklardagi turli mashq hamda topshiriqlar ham shu maqsadga qaratilgan. Ammo o‘quvchilarning darsni o‘zlashtirish qobiliyati har xil bo‘lganligi tufayli o‘quvchilarda kerakli ko‘nikma va malakalarni hosil qilish uchun har birining bilim darajasiga mos bo‘lgan mashq va topshiriqlarni bajarishlari foydadan xoli bo‘lmas. Ana shu maqsadni nazarda tutib, har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarga mustaqil ishslash uchun murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan mashq va topshiriqlar berishga harakat qilishi lozim. Ma’lumki, o‘quvchining savodxonligi, fikrlash tarzi va uni ravon ifodalash malakasi yozma ishlarda namoyon bo‘ladi. O‘quvchilar ko‘proq tovushlar talaffuzida, bo‘g‘in ko‘chirish va tinish belgilarida xatoga yo‘l qo‘yadilar. Shuning uchun ham o‘qituvchi o‘quvchilarning og‘zaki nutqi bilan birgalikda savodxonlik darajasini ham oshirib borishi lozim.

Bugungi kunda hammaga ma’lum bo‘lgan “Klaster”, “Venn diagrammasi”, “So‘z o‘yini” kabi usullardan foydalanish yaxshi samara berib kelmoqda. Boshlang‘ich sinflarda chet tili

17. Сафонова В.В. Культуроведение в системе современного языкового образования // Иностранные языки в школе. –М.,–2001.– № 3.– С. 17–24.

darslarida ham ayniqsa, "Venn diagrammasi"dan foydalanilsa, yaxshi natija beradi. Erkaklar va ayollar kiyadigan kiyim-kechaklar va ularning nemis tilida nomlanishi kabi shunga o'xshash topshiriqlar berilsa, o'quvchilar ikki ustunda ularning nomini yozishadi. Diagrammaning kesishgan nuqtasida ham ayollar kiyadigan, ham erkaklar kiyadigan kiyimlarni tez va zukkolik bilan topishadi. Qaysi guruh ko'proq kiyim-kechaklar nomini yoza olsa, o'sha guruh rag'batlantiriladi va g'olib deb topiladi. Yoki meva va sabzavotlar nomi, uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlarning nomlanishini yozsa ham dars samaradorligi oshib, o'quvchilarning so'z boyligi ortadi. Quyida biz yuqoridaagi fikrlarga tayangan holda namuna keltiramiz:



talabidir, pedagogika boshqa madaniyatlar haqida emas, balki tushunchalar qayti nazarla o'quvchining xatti-harakati va muloqot uslubida kuzatiladi.

Chet tilini o'rganish jarayonida o'quvchilar o'zga davlat madaniyatini ham mukammal bilib, bu bilimlardan vaqtisi-yetganda unumli foydalana olsalar foydadan xoli bo'lmas. Bu jarayonda o'quvchining xalqi madaniyatini saqlab qolgan holda o'zga xalq madaniyatini ham birgalikda tushuntirib, o'quvchining tafakkurini, dunyoqarashini rivojlantirish vazifasini ado etgan bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Song, Li. (2009). Teaching English as intercultural Education Challenges of Intercultural Communication". Intercultural Communication Research. Vol.1., 268p.
2. Сафонова В.В. Культуроедение в системе современного языкового образования // Иностранные языки в школе. –М.-2001.- № 3.- С. 17–24.
3. Mamatova Gulshan Amankulovna "Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarda adabiy tushunchalarni shakllantirish metodikasi" PhD dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent 2020
4. Jamol Jalolov "Chet tili o'qitish metodikasi "O'quvchi" nashriyot – matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2012.
5. Daniela Pohl. Fremdsprachen in der Grundschule. Motivation im Fremdsprachenunterricht als Grundlage für die Förderung von Mehrsprachigkeit. Examensarbeit, 2004.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda xorijiy til o'qitish metodikasi va uni takomillashtirish yo'llari, o'quvchilarni bir soatlik dars davomida lingvistik bilim berish orqali saviyasini oshirish, mavzuga mos tanlangan matn bilan ishlashga o'rgatish xususida so'z yuritilgan. O'quvchilarning madaniyatlararo muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish usul va vositalari xususida so'z yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассказывается о методике обучения иностранному языку в начальных классах и способах ее совершенствования, повышения уровня учащихся путем предоставления лингвистических знаний в течение урока, а также научить их работать с текстом, подобранным по теме. Обсуждаются методы и средства развития у учеников межкультурного общения.

SUMMARY

This article talks about the methodology of foreign language teaching in primary classes and ways to improve it, to increase students' level by providing linguistic knowledge during a one-hour lesson, and

to teach them to work with a text selected according to the topic. Methods and means of developing students' intercultural communication skills are discussed.

Olmon tili shevalarining o'rganilishi va tarixi

Rahmanova D.

Toshkent viloyati Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: sheva, lahja, dialektologiya, idioma, fraza, frazeologizm, leksema, lingvomadaniyat.

Ключевые слова: диалектология, идиома, словосочетание, фразеологизм, лексема, лингвокультура, эквивалентность.

Key words: dialect, dialectology, idiom, phrase, phraseologism, lexeme, linguistic culture, equivalence.

Olmon o'lkasida shevalar va lahjalar shunchalik ko'pki, ba'zida nemis xalqi bir-birlarini qanday tushunishlari hayratlanarli. Nemis tili (nemischa: *Deutsch*) Hind-yevropa tillari oilasidagi german tillari guruhi guruhiga mansub til. Idish tiliga yaqin. GFR, Avstriya Respublikasi, Shveysariya Konfederatsiyasi (qisman), Lyuksemburg Gersogligi (qisman), Belgiya Qirolligining rasmiy tili. Rossiya Federatsiyasida, Amerikaning bir qancha mamlakatlarida ham tarqagan. So'zlashuvchilarning umumiy soni 110 million kishidan ortiqroqdir. Nemis tili frank, saks, turing, alemann, bavar singari g'arbiy german kabilalari shevalari asosida tarkib topgan va quyi nemis lahjalariga, har bir lahja guruhi esa g'arbiy va sharqiy guruhchalarga ajraladi. Nemis tilining taraqqiyot tarixida milliy tilgacha bo'lgan (16-asrgacha) va milliy til (18-asrdan) davrlari farqlanadi; 16—17-asrlar o'tish davri hisoblanadi. Hozirgi adabiy til me'yorlarining shakllanishi asosan 18-asr oxirida tugallanib, bu davrda grammatik tizim va imlo barqarorlashgan.

Germaniyadagi til bilan bog'liq vaziyat ko'p jihatdan tarixiy sharoitga bog'liq. Biz sheva faqat viloyatlarda, birinchi navbatda qishloqlarda qo'llaniladi, poytaxtda esa ular namunali tilda gapiradi, deb o'ylashga o'rganib qolganmiz. Germaniyada esa vaziyat butunlay boshqacha. Ma'lumki, bu mamlakatda juda ko'p lahjalar mavjud. Berlin ham bundan mustasno emas. Germaniya poytaxtida Berlinerisch deb nomlangan lahja ham mavjud. Dialektlarning chegaralari va mintaqaviy variantlari ilk nemis va o'rta nemis feodal knyazliklari va birlashmalarining chegaralariga borib taqaladi. Bundan deyarli ikki ming yil avval, 1-2-asrlarda hozirgi Germaniya hududida turli xalqlar va qabilalar yashab, doimiy ravishda bir-biri bilan kurashib, yangi hududlarni egallashga intilishgan. «Xalqlarning buyuk ko'chishi» deb atalgan hodisa natijasida qabilalar janubdan shimolga ko'chib, Alp tog'laridan tashqarida joylashgan bo'lib, o'zları bilan til, dialekt farqlarini olib kelgan. O'sha paytda mavjud bo'lgan eng katta qabila guruhlari alemanlar edi (Alemannen), Bavariyaliklar ("Bavariya"), Svabiyaliklar (Shvaben), Tyuringiyaliklar (Tyuringer), hesses (Hessen), frank (franken), sakslar (Saksen) va frizlar (Frizen).

Vaqt o'tdi, knyazliklar va siyosiy tuzilmalar chegaralari o'zgardi - masalan, alemanlar ilgari yashagan hududda, hozirda Baden-Vyurtemberg yerlari, Bavariyaning g'arbiy qismi, Avstriyaning g'arbiy qismi, Shveysariyaning bir qismi mavjud.

Dialektizmlar asosan og'zaki nutqda ishlatiladi, yozuvda esa o'ziga xos struktura va qonuniyatlar mavjud.

Germaniyaning barcha xududlarida german qabilalarining in'ikosi sifatida shevalar saqlanib qolgan. Dialektizmlar muloqotning emotsiyonal va ifodali shakllanishi uchun xizmat qiladigan vositalardir. Aksariyat shevalarda negativ ma'noga ega bo'lgan emosional so'zlar maydoni kengroq bo'ladi.

Nemis tili normasi yozma va og'zaki muloqot shakllariga ega bo'lgan murakkab tarixan shakllangan tizimni anglatadi. Bu til normasi Germaniya, Shveysariya va Avstriya uchun umumiy bo'lib, nemis tili rasmiy til hisoblanadi. Dialekt - bu kichik, nisbatan yopiq odamlar guruhi uchun aloqa vositasi bo'lgan til tizimi. Til normasining dialektdan asosiy farqi yozma